



UDK: 37.01

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14634597>

## МА’NAVIY-МА’RIFIY SAMARADORLIKNI TA’MINLASHNING PEDAGOGIK OMILLARI VA KOMPONENTLARI

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И КОМПОНЕНТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ

### PEDAGOGICAL FACTORS AND COMPONENTS OF ENSURING SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EFFECTIVENESS

**Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich**

*Farg‘ona davlat universiteti rektori,  
pedagogika fanlari doktori, professor*

#### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolada ma’naviy-ma’rifiy samaradorlikni oshirish jarayonida yoshlar faoliyatining maqsad va vazifalarini aniqlash, ularni bajarish usullari va vositalarini belgilash, tashkiliy masalalarni hal qilishga yordam ko‘rsatish hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini har tomonlama rag‘batlantirish, ularni tashabbuskorlik asosida mustaqil faoliyat ko‘rsatishga undash xususida fikrlar yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ma’naviy-ma’rifiy samaradorlik, ijtimoiy faollik, pedagogik omillar, jamoaviy faoliyat, pedagogik kompetentlar.*

#### **Аннотация.**

*В данной статье рассматриваются вопросы определения целей и задач молодежной деятельности в процессе повышения духовно-просветительской эффективности, установления методов и средств их выполнения, а также оказания помощи в решении организационных вопросов. Особое внимание уделяется всесторонней мотивации социальной активности молодежи, стимулированию их инициативности для осуществления самостоятельной деятельности.*

**Ключевые слова:** *Духовно-просветительская эффективность, социальная активность, педагогические факторы, коллективная деятельность, педагогическая компетентность.*

### **Annotation.**

*This article discusses the identification of the goals and objectives of youth activities in the process of enhancing spiritual and educational effectiveness, establishing methods and tools for their implementation, and providing support in solving organizational issues. The article also focuses on promoting the social activity of youth in all aspects, encouraging their initiative to engage in independent activities.*

**Keywords:** *Spiritual and educational effectiveness, social activity, pedagogical factors, collective activity, pedagogical competence.*

Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, demokratiya prinsiplari asosida o‘z-o‘zini boshqarish, qonun ustuvorligini ta’minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga erishish ma’naviy-ma’rifiy samaradorlikni ta’minlashning asosini ifodalaydi. Shunga ko‘ra, yoshlar orasida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotni kengaytirish mafkuraviy jarayonlarni yangilash va rivojlantirishning muhim omili sifatida jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Yoshlar orasida ma’naviy-ma’rifiy samaradorlikni ta’minlash jarayoni bir qator ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarga ega. O‘zbek xalqi milliy qadriyatlarining ulkan tarbiyaviy ahamiyatga egaligi mazkur vositalar asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonning samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ma’rifiy-pedagogik imkoniyatlarni kengaytiradi hamda ma’naviy-ma’rifiy samaradorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning muayyan tamoyillarga tayangan holda amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Eng muhim jihatlardan biri – yoshlarning jamoa bo‘lib faoliyat ko‘rsatishga intilishlaridir. Jamoa bo‘lib faoliyat ko‘rsatish esa o‘zbek xalqining milliy xususiyatlari bilan bog‘liq. Qadim-qadim zamonlardan boshlab ota-bobolarimizda jamoa bo‘lib yashash tuyg‘usi ustun bo‘lgan. Ajdodlarimiz azal-azaldan mahalla bo‘lib yashash ko‘nikmasiga ega bo‘lganlar. Ular mahallalarda hasharlar, marosimlarni birgalikda o‘tkazganlar. Bunday oljanob sifatlar avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Shuningdek, ota-on, oila, mahalla, el-yurtni muqaddas deb bilish; ona tiliga alohida hurmat bilan qarash; milliy va diniy bag‘rikenglik, kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish; mehr-muhabbat, go‘zallik va nafosat ramzi bo‘lgan ayolga ehtirom ko‘rsatish; sabr-bardoshlilik va qanoatlilik; halollik, mehr-oqibat va sadoqat kabi ma’naviy xususiyatlar asrlar osha bizgacha etib kelgan.

Ma’naviy-ma’rifiy samaradorlikni ta’minlash yaxlit, izchil tizimdan iborat bo‘lib, uning barcha xususiyatlari o‘zaro aloqadorlik va uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham dastavval ma’naviy-ma’rifiy samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy-ma’naviy, ijtimoiy-hududiy, ijtimoiy-

moddiy, ijtimoiy-ma'rifiy omillarning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari va pedagogik ta'sir kuchini aniqlash lozim.

Jamiyatda shakllangan ijtimoiy-ma'naviy muhit ma'naviy-ma'rifiy samaradorlikni ta'minlash uchun qulay pedagogik vaziyatni vujudga keltirdi. O'zbekiston jamiyatida ro'y berayotgan ma'naviy islohotlarning ijobiy natijalari, xalqimiz uchun muqaddas bo'lgan qadriyatlar va tarixiy merosning tiklanishi, umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarni o'rganish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar, ijtimoiy-ma'naviy, pedagogik omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shaxs tug'ilib o'sgan makonning tarixiy qadriyat ekanligi ijtimoiy-hududiy omil sifatida muhim ahamiyatga ega. O'zbek xalqining tarixiy va ko'hna madaniyatga ega ekanligi, yurtimizning bundan 700-500 ming yil avval odamzod paydo bo'lgan joylar sirasiga kirishi, davlatchilik tarixi milloddan avvalgi 1500-yillarga borib taqalishi, Xorazm, So'g'd, Baqtriya kabi harbiy-demokratik tuzulmaga ega bo'lgan davlatlarning shakllanganligi, qadim zaminimizda saklar, massagetlar, so'g'dlar, baqtriyaliklar singari turkiy qabila va qavmlarning hayot kechirganligi, uning o'tmishda Movarounnahr, Turonzamin, Turkiston nomlari bilan mashhur bo'lib kelganligi, milliy mustaqillik uchun kurashgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Torobiy, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ko'plab xalq qahramonlarining shu zaminda yetishib chiqqanligi, dunyo ilm-fanining ravnaq topishida tamal toshini qo'yan mashhur allomalar: Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Hakim at-Termizi, Burhoniddin Marg'inoniy, al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk siymolar yashagan tabarruk yurt ekanligi, olis o'tmishga borib taqalishini yoshlar ongiga singdirish hamda ularning ma'naviyatini yuksaltirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Milliy ma'naviy boyliklarning shaxs kamolotidagi o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham ma'naviy-ma'rifiy samaradorlikni oshirishda mazkur boylikdan foydalinish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Bu, dastavval, milliy mentalitet – millatning tarixiy jarayonlarda shakllangan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, yashash va fikrlash tarzi, ruhiy quvvati va layoqatlarini yoshlar ko'z o'ngida gavdalantirish bilan bog'liq. Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotiga yo'naltirilgan uzlusiz pedagogik jarayon mazmunida ajdodlarimizning an'analari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, diniy e'tiqodlari o'z ifodasini topishi kerak. Milliy qadriyatlar milliy xususiyatlarning asosini tashkil etadi va etnik jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Millatning tarixi, yashash tarzi ma'naviy va madaniy xususiyatlarining ta'limgartarbiya mazmunida to'laqonli tarzda namoyon bo'lishi ma'naviy-ma'rifiy samaradorlikni oshirishda zaruriy omillardan biri hisoblanadi.

Umuminsoniy xususiyatlarning mazmun jihatdan boyligi ma’naviy-ma’rifiy samaradorlikni ta’minlashga yo’naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil etishda qulaylik tug‘diradi. Amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarda ajdodlarimizning asrlar davomida erishgan yutuqlari va qadriyatlariga tayanish, odamlarning jinsi, irqi, millati, e’tiqodidan qat’iy nazar ular bilan do’stona munosabatda bo‘lish, hamkorlik qilish, insonparvarlik, ijtimoiy adolat, hurfikrlilik tamoyillariga tayanish, umuminsoniy xususiyatlar mazmunining jamiyat hayotida ustuvor bo‘lishi, tinchlik va hamkorlikni qaror toptirish, erkin va farovon hayot barpo etishning muhim shartidir.

Davlat va jamiyatning iqtisodiy-moddiy rivojlanish omillarini tashkil etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi, moddiy-texnik imkoniyatlari, fan va texnika yutuqlarining joriy qilinishi, ilg‘or texnologiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi, xalq farovonligining ta’milanishi, mazkur jarayonda aholining barcha qatlamlari faollik ko‘rsatishi jamiyat a’zolarining moddiy-ma’naviy boyliklar yaratish, ijtimoiy faoliyatida, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘lib, tadbirkorlik, omilkorlik, tashabbuskorlikni rivojlantirish shart-sharoitlarining mavjudligi bilan bog‘liqdir.

Ma’naviy-ma’rifiy samaradorlikni ta’minlashda ijtimoiy-ma’rifiy omillar ham muhim o‘rin egallaydi. Bu omil ta’lim-tarbiya, fan, madaniyat, jismoniy tarbiya vositasida yoshlar ongiga samarali ta’sir ko‘rsatish, ularni har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish, ma’naviy dunyoqarashini takomillashtirish, barkamol shaxs sifatida shakllantirishga asos bo‘ladi. Uzlusiz ta’lim tizimi mazmunining muntazam boyitilishi, xorijiy tillarni o‘rganishga alohida ahamiyat qaratilayotganligi, yoshlarda zamonaviy bilimlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning kuchayishi ma’naviy-ma’rifiy targ‘iboti samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’naviy-ma’rifiy samaradorlikni ta’minlashda yetakchi omilini hisobga olish ijtimoiy-pedagogik jarayonni tashkil etishda muhim pedagogik qimmatga ega. Ma’lumki, jamoa tomonidan tanlangan yetakchi yoshlar rahbari degan maqomga ega bo‘ladi. Uning o‘zini tutishi, kiyinishi, fikrlash tarzi, qarashlari, nutqi, yangi g‘oyalari, tashabbuslari, jamiyat hayotidagi o‘zgarishlardan xabardorligi, tengdoshlariga munosabati, xulq-atvori kabi ko‘plab xususiyatlari boshqaruvchilik layoqatini namoyon qiladi. Yetakchilik har bir yoshga katta mas’uliyat yuklaydi. Uning ortidan o‘nlab, yuzlab va minglab yoshlar ergashadi. Yoshlarning iqtidorini o‘z vaqtida ro‘yobga chiqarish, hayotda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun qulay ijtimoiy pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirish ko‘p jihatdan yetakchilarga ham bog‘liq. Yoshlarning qiziqishlari, orzu-umidlarini ziyraklik bilan anglash, ularni o‘z vaqtida sabr-bardosh bilan tinglash, layoqatlarini

namoyon qilishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratishda yetakchilar muhim o‘rin tutadi.

Yoshlarning xulq-atvorlari, irodalari, xarakterlari, shaxsiy sifatlari, histuyg‘ulari, qarashlari ijtimoiy hamda o‘quv faoliyatlarini jarayonida tarkib topadi. Yetakchilar ko‘magida yoshlardagi ehtiyojlarni qondirishga yo‘l ochiladi va ular qiziqishga aylanadi. Qiziqishlar zaminida esa muayyan maqsadlar vujudga keladi. Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda har bir yetakchining o‘z oldiga muayyan maqsadlar qo‘yishi va ularni amalga oshirish yo‘lida astoydil harakat qilishi talab etiladi.

Yetakchilar faoliyatining samaradorligida maqsadlarning aniqligi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham yetakchilarning zarur pedagogik bilimlar va tarbiya metodlaridan xabardor bo‘lishlari, bиринчи navbatda, yoshlarni bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatishlari, zarur bo‘lgan vaziyatlarda ta’lim-tarbiyaviy metodlar va usullardan unumli foydalana olishlari taqozo qiladi.

Har bir yetakchi o‘z faoliyatini samarali tashkil eta olishi, yoshlarni uning fikrini qo‘llab-quvvatlashiga erishishi, o‘zi boshqarayotgan guruhdagilarning imkoniyatlarini namoyon qilishlariga sharoit yaratishi lozim. Yaxshi yetakchi bo‘lish uchun istakning o‘zi kifoya qilmaydi. Buning uchun yoshlarni bilan ishslashning o‘ziga xos jihatlari va qoidalarini bilish zarur. Rang-barang fikrlovchi yoshlarni bilan ishslashda yuzaga keladigan ba’zi xato va kamchiliklar, yetakchilarning ular bilan ishslashda zarur bilimlardan bexabarliklari va tajriba orttirmaganliklari bilan bog‘liq.

Yetakchilar faoliyatini bevosita kuzatish va o‘rganish natijasida duch kelayotgan muammolarni bartaraf etishda quyidagilarga e’tibor qaratish faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, degan xulosaga keldik:

- yetakchi jamiyatimizning bugungi hayotidagi jarayonlar va qo‘yilayotgan talablar mohiyatini chuqur anglab yetgan bo‘lishi;
- yoshlarni bilan ishslash, ularni boshqarishning asosiy qonun-qoidalarini bilishi;
- yoshlarni bilan ishslash jarayonidagi o‘z burch va vazifalarini to‘liq tushunib yetishi;
- yoshlarni bilan muvaffaqiyatli ishlashi uchun o‘z ustida muntazam shug‘ullanishi, nutqini rivojlantirishi, bilim, ko‘nikma va malakasini oshirib borishi zarur.

Aksariyat yetakchilar jamoadagi yoshlarning xususiyatlarini yaxshi bilishlarini ta’kidlaydilar. Biroq bu fikr har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Yetakchi guruhdagi har bir yoshning o‘ziga xos psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qanday muhitda o‘sganligi, oilaviy sharoiti, qiziqishlari, talablari, layoqati, fe’l-atvori, xulqi, odatlarini yaxshi bilishi taqozo qilinadi.

Yoshlar orasida ma’naviy-ma’rifiy samaradorlikni oshirishda, ularning ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etish darajasidan kelib chiqqan holda maqsad va rejaliyi oydinlashtiriladi. Shunga ko‘ra, jamiyat hayotida qaror topgan mafkuraviy munosabatlar mazmuni ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotini yangi bosqichga ko‘tarishda yetakchi o‘rin tutadi.

Jamiyat va shaxs o‘rtasidagi mafkuraviy munosabatlar tarzida tashkil etiladigan o‘zaro aloqa jarayoni yoshlar faoliyati mazmuni va yo‘nalishini belgilaydi.

Ma’naviy-ma’rifiy targ‘iboti samaradorligini oshirish uchun qulay pedagogik muhit yaratish, ushbu faoliyatni doimiy va muntazam ravishda amalga oshirish yoshlarda mafkuraviy bilimlarni egallash bilan bir qatorda, ongli intizom, jamiyat talablariga aniq va to‘g‘ri javob berish ko‘nikmalarining hosil bo‘lishiga ham ko‘maklashadi. Yoshlar faoliyati mazmuniga jamoat ishlariga faol qatnashish, bilimlarni muntazam oshirib borish, sinfdan va auditoriyadan tashqarida o‘tkaziladigan turli tadbirlarni tashkil etishga mas’uliyat bilan yondashish, jamoaga bo‘ysunish, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, turli vaziyatlarda o‘zini tuta bilish, safdoshlari yoki kursdoshlarining fikrlari bilan hisoblashish, o‘zaro yordam ko‘rsatish, hamkorlikka kirishish ko‘nikmalarini singdirish kabi vazifalar kiradi.

Bu jarayonda pedagogik va mehnat jamoalarining yoshlar imkoniyatlariga to‘g‘ri baho berishlari, ularning layoqatlari va qobiliyatlariga ishonch bilan qarashlari taqozo qilinadi.

## **FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 97 b.
2. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). Tarjima, muqaddima va izohlar muallifi Sh.Boboxonov. – T.: O‘zbekiston, 1990. – 199 b.
3. Ahmedov B. Vatan tarixidan lavhalar. Mas’ul muharrir Q.Usmonov – T.: Cho‘lpon, 2001. – 176 b.
4. Bahodir Zokir. G‘arb tamadduni: inqiroz alomatlari // “Tafakkur” jurnali, 2007-yil.
5. Выготский Л. Педология подростка // Выготский Л.С. Собр. соч.: В 6-ти т. Т.6. М., 1984. – 238 с.
6. Грехнев В. Общественное мнение как форма духовной жизни. // Философия и общество. 2006, № 3, 26-27- с.
7. Davletshin M. va boshq. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 134 b.